

## SABZI NAVLARINING HOSILDORLIGIGA MINERAL O'G'ITLARNING TA'SIRI

**G.M.Satipov**

*q.x.f.d prof Urganch Davlat Universiteti*

**H.R.Yusupov**

*o'qituvchisi Urganch Davlat Universiteti*

*N.SH. Matyakubova-Urganch Davlat Universiteti Biologiya yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Xorazm viloyati tuproq iqlim sharoitida sabzining “Nurli-70”, “Mirzoyi sariq”, “Mirzoyi qizil” navlarining ildizmevasining shakllanishiga va hosildorligiga mineral o'g'itlar me'yorlarining ta'siri o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Navlar, Nurli-70, Mirzoyi sariq, Mirzoyi qizil, o'g'it me'yor, ildizmeva, hosildorlik, quruq modda, umumiy qand, karotin, nitratlar.*

**Аннотация:** *В данной статье изучается влияние минеральных удобрений на формирование и урожайность корней сортов моркови «Нурлы-70», «Мирзой сары», «Мирзой кызыл» в почвенно-климатических условиях Хорезмской области.*

**Ключевые слова:** *Сорта, Nurli-70, Мирзой желтый, Мирзой красный, семена, корнеплод, урожайность, сухое вещество, общий сахар, каротин, нитраты.*

Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sohaning o'rni va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash, sifatli mahsulot yetishtirish va hosildorlikni yanada oshirish, agrar sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Xorazm vohasining tuproqlari yildan –yilga sho'rlanib borayotganligi uchun xar yili sho'r yuvish ishlarini vaqtida amalga oshirishimiz shart va zarurdir. Yozining jazirama issiqligi, kuchli quyosh radiatsiyasi tufayli o'simliklarning biologik xususiyatlarini xam hisobga olishimiz zarur bo'ladi. Keyingi paytlarda qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda ayniqsa sabzavot ekinlarda mineral o'g'itlarni qo'llanilishi orqali tuproqning unumdorligini oshirishga, bundan tashqari almashlab ekishni to'g'ri tashkil qilish orqali ekinlar hosildorligini oshirishga, hamda ekinlarning kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishini oldini olishga ham erishilmoqda. Shunday sabzavot ekinlaridan bir turi, bozor peshtaxtalaridan hamisha o'rin olgan halqimiz sevib istemol qiladigan ildizmevali ekinlardan biri sabzi o'simligidir.

Sabzi o'simligi tarkibida yengil hazm bo'luvchi oqsil va uglevodlar mavjuddir. Shuning uchun ham sabzi o'simligi oziq ovqat ekini sifatida yetishtirib kelinmoqda. Sabzi o'simligining ildizmevasi xomligicha, qovurilgan, dimlangan va qiymalangan holda iste'mol etiladi, shuningdek chorva mollariga yem xashak sifatida xam beriladi. Sabzi nafaqat oziqa sifatida ishlatiladi, uning tarkibida nafas organlari kasalliklariga hamda ko'z kasalliklariga shifo bo'luvchi kimyoviy moddalar borligi uchun dorivor o'simlik sifatida xam undan foydalaniladi.[1]

FAO ma'lumotlariga qaraganda, hozirda sabzi 10 ta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan sabzavot ekin turlaridan hisoblanadi. Dunyo bo'yicha 2016 yilda 42,7 mln. tonna sabzi yetishtirilgan va uning 47% ni yoki 20,5 mln. tonnasini Xitoy ishlab chiqargan. Bu davrda dunyoning boshqa davlatlarida, ya'ni Rossiyada – 1,8, AKShda – 1,4, Polshada – 0,8, Ukrainada– 0,9, Buyuk Britaniyada – 0,8 mln. tonna sabzi yetishtirilgan. Hisoblar bo'yicha olinganda, Osiyo sabzi yetishtirish bo'yicha dunyo mahsulotini 61% ni, Yevropa – 24,2 % ini, Amerika 9,7% ini va Afrika – 4% ini ishlab chiqargan. [2].

O'tkazilgan tajribalarimizda sabzi navlarining hosildorligiga mineral o'g'itlarning ta'siri o'rganilganda "Nurli-70" navini azot-200, fosfor-120, kaliy-90 kg me'yorida berganimizda ildizmevaning o'rtacha vazni 50,6 grammni o'rtacha hosildorlik gektariga 30,2 tonnani tashkil qildi.

O'g'it me'yorini oshirganimizda yani azot-250, fosfor-150, kaliy-120 kg qilib berganimizda ildizmevaning o'rtacha vazni 55,8grammni o'rtacha hosildorlik gektariga 39,0 tonnaga yetgani kuzatildi.

1-jadval

Sabzi navlarining hosildorligiga mineral o'g'itlarning ta'siri (2024-yil)

№	Navlar	O'g'it me'vorlari	Ildizmevaning o'rtacha vazni. Gr	Hosildorlik. t/ga
1	Nurli-70	N200, P120 K90	50,6	35,2
2		N250, P150 K120	55,8	39,0
3	Mirzovisariq	N200, P120 K90	52,5	37,6
4		N250, P150 K120	57,2	41,0
5	Mirzoviqizil	N200, P120 K90	46,2	27,5
6		N250, P150 K120	49,2	30,0

2-jadvla

Sabzi navlari mevasining kimvoviy tarkibiga mineral o'g'itlarning ta'siri

№	Navlar	O'g'it me'vorlari	Quruq modda %	Umumiy qand, %	Karotin mg/%	Nitratlar mg/kg
1	Nurli-70	N200, P120 K90	10,0	5,6	8,0	112,0
2		N250, P150 K120	10,5	5,3	8,1	117,4
3	Mirzoyi sariq	N200, P120 K90	9,6	5,5	8,3	139,5
4		N250, P150 K120	9,8	5,2	8,0	167,3
5	Mirzoyi qizil	N200, P120 K90	8,6	5,5	7,8	130,1
6		N250, P150 K120	7,9	5,0	7,9	138,3

Tajribamizda qatnashgan ikkinchi nav "Mirzoyi sariq" navida mineral o'g'itlarni azot-200, fosfor-120, kaliy-90 kg me'yorida qo'llaganimizda ildizmevaning o'rtacha vazni 52,8grammni, o'rtacha hosildorlik gektariga 37,6 tonnani tashkil qildi. O'g'it me'yorini oshirilgan fonimizda kamaytirilgan fonga nisbatan bu ko'rsatkichlar mos ravishda 4,7gramm, 3,4 tonnaga ko'p bo'lganligi aniqlandi.

"Mirzoyi qizil" navini mineral o'g'itlar azot-200, fosfor-120, kaliy-90 kg me'yorida qo'llaganimizda ildizmevaning o'rtacha vazni "Nurli-70" navining shu fonidagiga nisbatan 4,4gramm, "Mirzoyi sariq" naviga nisbatan 6,3 grammga, o'rtacha hosildorlik mos ravishda 7,7; 10,1 tonnaga kam bo'lganligi kuzatildi.

Mineral o'g'itlarni azot-250, fosfor-150, kaliy-120 kg ga me'yorida berib yetishtirganimizda "Mirzoyi qizil" navida ildizmevaning o'rtacha vazni 49,2 grammni o'rtacha hosildorlik gektariga 30,0 tonna bo'ldi.(1-jadval)

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki Xorazm viloyati o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida sabzining "Nurli-70" va "Mirzoyi sariq" navlari "Mirzoyi qizil" naviga nisbatan hosildorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lganligi kuzatildi. Mineral o'g'itlar me'yorlarining oshib borishi sabzi navlarining ildizmevasi va umumiy hosildorligiga ijobiy ta'sir qilinganligi aniqlandi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Azimov B.J., Bo'riyev X.Ch., Azimov B.B. Sabzavot ekinlarini sug'orish va o'g'itlash, Sabzavot ekinlari biologiyasi kitobi: T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi." 2011. B.116-126.
2. www. Fao.org- Изучения и подбор солеустойчивости с/х культур для возделывания на засоленных почвах.